

BEMOR VA SHIFOKOR MULOQATIDA TILNING SAMARALI O'RNI

Sh.A. Zoitova

*Toshkent davlat tibbiyot universiteti
1-son o'zbek va xorijiy tillar kafedrasida katta o'qituvchisi*

M. Umarbekova

*Toshkent davlat tibbiyot universiteti
1-son davolash fakulteti talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada tibbiyotda lingvistik kompetensiya tushunchasi, uning kasbiy faoliyatidagi o'rni, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari muhokama etildi. Zamonaviy tibbiyotda shifokorning lingvistik tayyorligi bemorga to'g'ri tashhis qo'yish, psixoemotsional qo'llab quvatlashning samarali davolash jarayonining kafolatli samarasi sifatida qaraladi.

Kalit so'zlar. Nutq, til, muloqot, bemor, shifokor, kompetensiya, mutaxassis, termin, kommunikatsiya, axborot, madaniyatli, lingvistik, munosabat, ishonch, psixologik, kommunikativ.

Bugungi kunda tibbiy xizmatning samaradorligi nafaqat zamonaviy uskunalar va bilimlar bilan emas, balki bemor va shifokorning o'rtasidagi muloqot madaniyati bilan ham belgilanadi. Ular o'rtasidagi kommunikatsiya sifati – bu davolash jarayonining poydevori hisoblanadi. Til – shifokorlik faoliyatida axborot almashinuvi, ishonch va ruhiy qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida alohida ahamiyatga ega. Shu bois, bemor va shifokor o'rtasida samarali muloqotni ta'minlashda tilning o'rni atroflicha tahlil etiladi.

Til shifokorlik faoliyatining ajralmas qismidir. Bemor va shifokor o'rtasida psixologik va lingvistik omillar mavjud. Til nafaqat axborot, balki hissiyot va munosabatni ifodalaydi. Shifokorning mehribon, muloyim va tinglay oladigan tarzda so'zlashi bemorda ishonch uyg'otadi. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, bemorlar shifokorning nutqi asosida uning professionalik darajasini baholaydi.

Bu lingvistik kompetensiya bo'lib, u shifokorning samarali va to'g'ri muloqot qilish qobiliyati, tibbiy muloqotdagi va amaliyotidagi muvaffaqiyatning asosiy omili hisoblanadi.

Lingvistik kompetensiya – tilning grammatik, leksik, fonetik va pragmatik qoidalarini to'g'ri qo'llash qobiliyatidir. Bu tushuncha ilk bor amerikalik tilshunos olim tomonidan nazariy jihatdan asoslab berilgan[6]. Unga ko'ra, har bir shaxs o'z ona tilidagi til qoidalarini bilishi va to'g'ri qo'llashi zarur.

Tibbiy muloqotda esa bu qobiliyat ancha keng va murakkab shaklda namoyon bo'ladi. Shifokor bemor bilan muloqotda faqat so'zlash emas balki:

oddiy va tushunarli tilda tushuntirish;

madaniy omillarni inobatga olish;

ishonch uyg'otuvchi ifoda va intonatsiyadan foydalanish;

emotsional va psixologik holatni inobatga olgan holda so'zlash kerak bo'ladi;

texnik va lotincha terminlarni soddalashtirish.

Bemor shifokor nutqidagi aytayotgan gaplarni tushunmasa, dori yoki davo usulini noto'g'ri qollashi mumkin. Bu esa klinik natijalarni yomonlashtiradi. Masalan, "antibiotikni ovqatdan keyin ikki marta qabul qilish" degan tavsiyani "qulog'idan eshitganicha" qabul qilsa, bu natija salbiy ta'sir qilinadi.

Nutq madaniyati shifokorning kasbiy mahoratining muhim ko'rsatkichidir. Madaniyatli nutq shifokorning obro'sini oshiradi, jamoa bilan ishlashni osonlashtiradi va bemorlar bilan ijobiy muhit yaratadi.

Zamonaviy tibbiyotda shifokordan nafaqat chuqur bilim va amaliy ko'nikma, balki yuqori darajadagi kommunikativ kompetensiya ham talab etiladi. Kommunikativ kompetensiya — bu turli vaziyatlarda to'g'ri, samarali va madaniyatli muloqot qila olish qobiliyatidir.

Yaxshi muloqot qiladigan shifokorga bemor ko'proq ishonadi. Ishonch esa davolash jarayonining muhim omilidir. Shifokor nutqida ishonch bo'lgani kabi, empatiya ham mavjud bo'lmog'i kerak. Ya'ni til nafaqat axborotni yetkazish vositasi, balki munosabatni ifoda qiluvchi oyna hamdir. Chunki odamlarning hissiyotlarini tushunish, his qilish va ularga hamdardlik bildirish qobiliyatidir. Bu boshqa insonlarning vaziyatini o'z nuqtai nazaridan ko'ra olish, ularning holatini his qilish imkonini beradi. Bunda faqat nutq jarayonidan emas, suhbatdoshning ko'zidan ham ko'ra olish tushuniladi. Shifokor lingvistik jihatdan mukammal muloqot qilsa, bemor ham o'zi haqida ko'proq va aniqroq ma'lumot beradi.

Shifokor muloqot jarayonida o'z nutqini tibbiy terminlar, tilning sodda grammatik qurilmalaridan to'g'ri foydalanishi, bemorga yetarli darajada fikrini yetkazib berishiga asos bo'ladi. Masalan, bemorga: "Sizda gipertenziya aniqlangan, shuning uchun antigipertenziv vosita tavsiya qilinadi" kabi gap tarkibidagi murakkab atamalar "gipertenziya", "antigipertenziv" so'zlari tor soha doirasidagi atamalar bo'lib, ular o'rniga "qon bosim", "qon bosimga qarshi dori" kabi iboralaridan foydalanish samaraliroqdir.

Ko'p millatli jamiyatimizda bemorlar turli tillarda so'zlashadi. Nutqiy kompetensiya shifokordan nafaqat davlat tilida, zarur bo'lsa xorijiy tillarda ham muloqot qilishni talab etadi. Bu holda madaniy farqlar ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Bir millat uchun oddiy bo'lgan ibora, boshqasi uchun tahqirli bo'lib qolishi mumkin.

Bugungi kunda shifokor quyidagi yo'nalishlarda samarali muloqot qilishi zarur:

- Bemor bilan muloqot — kasallikni tushuntirish, tavsiya berish, ruhiy qo‘llab-quvvatlash.
- Bemor yaqinlari bilan muloqot — davolash jarayonini izohlash, savollarga aniq javob berish.
- Hamkasblar bilan muloqot — jamoaviy ishlash, maslahatlashuv, konsilium jarayonlari Xulosa sifatida shuni takidlash joizki,

Lingvistik kompetensiya shifokor uchun nazariy bilim yoki ortiqcha qobiliyat emas, balki amaliy zaruriyatdir. Til orqali axborot uzatiladi, ishonch paydo bo‘ladi, bemor ruhiyatiga ta‘sir qilinadi, xatolar oldi olinadi va eng muhimi – insonparvar munosabat shakllanadi. Jamiyatda shifokor nafaqat mutaxassis, balki ma‘naviy tayanch sifatida ham ko‘riladi. Shuning uchun uning nutqi madaniyatli, vazmin va mas‘uliyatli bo‘lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sultonov. A. "Tibbiyotda nutq madaniyati va kasbiy kommunikatsiya ". Toshkent, 2022.
2. Komilova. Sh. "Tibbiy lingvistika asoslari". Samarqand, 2021.
3. Crystal D. "Language and the Medical Profession". Oxford University Press, 2017.
4. Всемирная организация здравоохранения — www.who.int
5. Жон Р. "Professional Communication in Healthcare". London, 2019.
6. Noam Chomsky. "Aspects of the Theory of Syntax". MIT Press, 1965.
7. Axmedov. B. "Shifokor etikasi va nutq madaniyati". Toshkent, 2020.
8. CEFR — Common European Framework of Reference for Languages, www.coe.int